



UDK: 308

ALPOMISH DOSTONI EPOSINING ASOSIY TENDENSIYALARI

Xakimova Maxsudaxon G‘ofurjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

+998934449030

ulugbekmahsuda@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Alpomish dostonining tili, doston dialekti, arxaik so‘zlar, dostonda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari tahlilga tortilgan. Shuningdek, dostonda etimologik jihatdan ko‘proq o‘z qatlamga mansub lug‘aviy birliklar, shuningdek, o‘zlashgan qatlamga mansub lug‘aviy birliklarning o‘zaro ma‘nodoshlik hosil qilganligi kuzatilgan.

Kalit so‘zlar: Alpomish eposi tili, leksik va ma‘noviy xususiyatlar, o‘z va o‘zlashgan qatlam leksemalari, Alpomish dostoni dialekti, arxaik so‘zlar, sinonim, antonim so‘zlar.

Аннотация: В данной статье анализируются язык саги об Алпомиш, диалект саги, архаические слова, а также средства художественного изображения, использованные в саге. Также замечено, что в достане этимологически лексические единицы, относящиеся к своему слою, а также лексические единицы, принадлежащие к ассимилируемому слою, образуют взаимное значение.



Ключевые слова: Язык эпоса Алпомиш, лексические и духовные особенности, лексемы собственного и приобретенного слоев, диалект эпоса Алпомиш, архаические слова, синонимы, антонимы.

Abstract: The article, the language of the Alpomish saga, the dialect of the saga, archaic words, and the means of artistic representation used in the saga are analyzed. Also, it was observed that in dostan etymologically, lexical units belonging to their own layer, as well as lexical units belonging to the assimilated layer, formed mutual meaning.

Key words: The language of the Alpomish epic, lexical and spiritual features, lexemes of the own and acquired layers, the dialect of the Alpomish epic, archaic words, synonyms, antonyms.

KIRISH

O'zbek xalqi o'zining g'oyat qadimiy madaniyati va serqirra ijodiy salohiyati bilan jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan xalqlardan biri sanaladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari bebaho badiiy qadriyatlar silsilasi o'laroq, milliy qadriyatlarimizning qadimiy, avloddan avlodga o'tib, sayqallanib kelayotgan ijodiy jarayoni hisoblanadi. Xalq dostonlari qadimiy bebaho ma'naviy va ma'rifiy boylik sifatida davrlar osha shakl va mazmun jihatdan turli variantlarda ajdodlardan avlodlarga og'zaki shaklda yetib kelayotgan til manbasidir.

“Alpomish” dostonining til xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, unda qo'llangan so'zlarning mazmun mohiyati asosiy o'rinda turadi. Shuning uchun dostonda qo'llangan so'zlarning etimologik qatlamlarini belgilash ham muhim ahamiyatga ega.



“Alpomish” dostoni leksikasini kuzatar ekanmiz, unda qo‘llangan so‘zlarning ko‘pchiligini bevosita umumturkiy so‘zlar, ya’ni o‘z qatlam leksemalar tashkil etgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

“Alpomish” dostoni bir oila taqdiri tasviri misolida butun bir bashariyat uchun ibrat timsoli sifatida ardoqlanib kelmoqda. Shu o‘rinda birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning nihoyatda purma’no so‘zlarini eslash kifoyadir:

“Aslida xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shohbaytidir. Bu mumtoz asarda tarix to‘fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini yo‘qotmagan xalqimizning bag‘rikenglik, matonat, olijanoblik, kabi ezgu fazilatlarini o‘z ifodasini topgan”. [1.78]

Malumki, tildagi ichki va tashqi omillar asosida yuz bergan o‘zgarishlar, eng avvalo, tilning lug‘at tarkibida aks etadi. Chunki leksika tilning eng tez o‘zgaruvchan sohasidir. Har bir so‘z millatning o‘ziga xos belgilarini aks ettiradi. O‘zbek eposshunosligida xalq dostonlarining tili va badiiy tadqiqi xususiyatlari yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, T.Mirzayev, X.Doniyorov, B.To‘ychiboyev, S.Tursunov, Z.Xolmanova, Sh.Mahmadiyev, G.Jumanazarova, O.Safarov, H.T.Zarifov, B.Sarimsoqov, N.Mahmudov, Sh.Turdimov, S.Mirzayeva kabi filolog olimlarning bu borada olib borgan tadqiqotlari alohida tahsinga loyiq.

O‘zbek tili Markaziy Osiyodagi qadimiy, mahalliy xalqlarning turkiy tillar tizimidagi tillardan biri bo‘lib, uning lug‘aviy tarkibi, grammatik qurilishi ham o‘zining uzoq tarixiga ega. Hozirgi o‘zbek tili leksikasi o‘zining butun taraqqiyoti jarayonida shu tilning ichki va tashqi rivojlanish qonuniyatlari asosida boyib borgan, bu tilning so‘z boyligi, leksik-semantik tizimi sifatida shakllangan yaxlit bir sistemadir.

“Alpomish” dostoni xalq og‘zaki ijodining nodir yodgorligi sifatida ijtimoiy, siyosiy va axloqiy, ta’limiy qarashlarni badiiy jihatdan mujassamlashtiradi hamda tarix, adabiyot,



etnografiya, tilshunoslik va boshqa sohalarga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zida ifoda etgan nodir yodgorliklardan biri sanaladi.

Har qanday til, u qabila tili bo'ladimi, millat tili bo'ladimi, o'zining ma'lum miqdordagi so'z boyligi va til birliklariga ega bo'ladi. O'zbek tili lug'at tarkibining deyarli yarmini turkiy so'zlar tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda tilimizda xitoycha, arabcha va fors-tojikcha o'zlashma so'zlar va til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy omillar ta'sirida yana boshqa turli tillardan so'zlar o'zlashish hisobiga boyidi. Shunga ko'ra o'zbek tili lug'at tarkibi tarixiy shakllanish jihatidan ikki qatlamga: o'z qatlam va o'zlashgan qatlamga ajratiladi.

“Alpomish” dostonida qo'llangan leksik birliklar etimologik jihatdan tahlil qilinganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, dostonida turkiy, o'zbekcha so'zlar bilan bir qatorda ko'plab arabcha, fors-tojikcha, qisman bo'lsa-da, xitoycha so'zlar qo'llangan.[2.96]

O'z qatlamga mansub leksik birliklar: asarda qo'llangan o'z qatlam umumturkiy (o'zbekcha) so'zlar ko'p miqdorni tashkil etadi. O'z qatlamga oid so'zlarning tilda mavjudligi juda qadimiy bo'lib, u oltoy oilasidagi tilda so'zlashuvchi xalqlar hali ajralib ketmay turib, tillari bitta bo'lgan davrda yuzaga kela boshlagan. Bu so'zlar asrlar davomida turkiy tillar uchun yangi so'zlar yasash orqali leksikani boyitishda asos vazifasini o'tab kelgan. Umumturkiy so'zlarni ma'lum darajada barcha turkiy tillar uchun mushtarak deyish mumkin. Masalan, kel, men, sen, ol, qil, tur, bor, yot, o'yna, bir, ayt, tun, kun va boshqalar.

Tilimizning lug'at tarkibiga e'tibor bersak, u turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli sabablar, turli tarixiy jarayonlar ta'sirida boyib, taraqqiy etib kelganligini ko'ramiz. O'zbek tili lug'at tarkibining tashqi manbalar, ya'ni boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga boyishi, kengayishi ham alohida ahamiyat kasb etadi.[3.98]

“Alpomish” dostonining leksik tarkibini tahlil qilar ekanmiz, asarda, asosan, umumturkiy qatlamga mansub so'z va iboralar miqdor jihatdan ko'pchilikni tashkil etsa-da,



unda xitoycha, arabcha, fors-tojikcha o‘zlashma leksemalar, shuningdek, eskirgan so‘zlar hamda shevaga xos so‘zlar ham keng qo‘llangan.

Arxaik so‘zlar ehtiyoj talabiga ko‘ra, zamonaviy sinxronik nutqda ishlatiluvchi, ammo zamonaviy normaga kirmaydigan so‘zlardir. Dostonda bunday so‘zlar ham kam miqdorda bo‘lsa-da uchraydi. Masalan, sag‘ir (yetim), tumog‘ (bosh kiyim), mahshar (hisob-kitob kuni), tabib (shifokor), ko‘tohlik (ayb, gunoh), muzofot (hudud), manglay (peshona), pir (ustoz, aziz-avliyo).

“Alpomish” dostonida leksik-semantik jihatdan sinonim, antonim so‘zlar, iboralar, shuningdek, mubolag‘a, o‘xshatishli konstruksiyalar hamda metaforik birikmalar ham juda keng qo‘llangan. Bu kabi til vositalari, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalari uchun muhim tasvir vositasi sifatida ahamiyatlidir.

Leksik birliklarning alohida bir turi bo‘lgan ma’nodoshlik hodisasini kuzatar ekanmiz, dostonda etimologik jihatdan ko‘proq o‘z qatlamga mansub lug‘aviy birliklar, shuningdek, o‘zlashgan qatlamga mansub lug‘aviy birliklarning o‘zaro ma’nodoshlik hosil qilganini va bu holat asarning badiiy qimmatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘ramiz. Dostonda qo‘llangan sinonim so‘zlarni o‘rganish orqali biz sinonim so‘zlarning tilning ichki va tashqi taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq asta – sekinlik bilan rivojlanganligini, doston tilini boyitishga, uslubining jozibador, mazmundor, va ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qilganligini anglab yetdik. Misol: og‘a, aka, emikdosh; tangri, xudoy, haq, oblo, rabb; el, xalq, xaloyiq; qismat, taqdir; shoh, sulton. Shuningdek, dostonda antonim so‘zlar ham keng qo‘llangan. Dostonda insonning turli xususiyatlarini, ruhiy holatlarini anglatuvchi antonimik juftliklarni ko‘plab uchratish mumkin. Bu tabiiy, chunki badiiy asarning asosiy maqsadi ham inson ma’naviy olamini so‘z orqali ifodalash hamda tarbiyalashdan iborat. Masalan, dostonda qo‘llangan antonim so‘zlar barcha so‘z turkumlari orqali ifodalangan: Masalan, ot (yer-osmon, rost-yolg‘on, shoh-gado, do‘st-dushman, aka-uka), sifat (yaqin-uzoq, o‘lik-tirik, katta-kichik, yosh-qari, yaxshi-yomon), ravish (qish-yoz, erta-kech, oqshom-kunduz), fe’l



(yashamoq-o'lmoq).

Dostondan qo'llangan mubolag'ali tasvirlar o'quvchini yoki tinglovchini turli vaziyatlar bilan bog'liq holatlarda qahramonlarning alohida, o'ziga xos sifatlarini, belgilarini idrok etishga, baholashga undaydi. Mubolag'a shunchaki bo'rttirish, kuchaytirishgina emas, aksincha bo'rttirilayotgan belgilarning ham ma'lum maqsadga qaratilganligi nuqtai nazaridan ham xarakterlanadi. Demak, mubolag'ali tasvirlar bo'rttirish, kuchaytirish orqali o'quvchini tasvirlanayotgan obrazlarning belgi-xususiyatlarini idrok etish va unga nisbatan emotsional munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiy adabiyot tilining tasviriy vositasi sanalgan o'xshatish o'zining obrazlilik, tasviriylik emotsional ekspressivlilik kabi xususiyatlari bilan badiy asar tilida yaqqol sezilib turadi u badiiy asarning barcha komponentlari: portret, ruhiy kechinma, peyzaj, xarakterlar tasvirida qo'llaniladi va badiy asar yuzaga keladi. Birorta badiiy asar yo'qki, unda o'xshatish qatnashmagan bo'lsa. Umuman, badiiy asarning badiiylik belgisi o'xshatish, sifatlash, metofora, jonlantirish kabi tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. "Alpomish" dostonining badiiyligini ta'minlovchi vositalar sirasida o'xshatishlar alohida ahamiyatga ega. Dostonda qo'llangan o'xshatishlar epik qoliplar tarzida ko'p holatda takror holda qo'llanib, ma'noni kuchaytirishga hamda obrazlilikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Xalq dostonlari tilida dialektizmlarning qo'llanilishi yozma adabiyotdagidan ancha farq qiladi. Chunki yozma adabiyotda dialektizmlar, asosan, personajlar nutqida qo'llanadi. Muallif nutqida esa juda kam ishlatiladi. Xalq dostonlari tilida esa muallif va qahramonlar nutqi bir-biridan keskin farq qilmaydi. Chunki uning ijodkori ham, shu xalq yoki ma'lum bir sheva vakili hisoblanadi. Dostonlar tilidagi dialektizmlar muayyan sabablar asosida qo'llanadi va quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.[4.99]

Sinonim so'zlar. Sinonim so'zlar har qanday badiiy asarning emotsionalligini, uslubiy jihatdan ravonligini, mazmundorligini oshirishga xizmat qiladigan lug'aviy birliklar sanaladi.



Xususan, “Alpomish” dostonida ham sinonim soʻzlar juda oʻrinli qoʻllangan boʻlib, aynan doston tilining jozibadorligini, musiqiyiligini, rang-barangligini taʼminlashga xizmat qilgan. Dostonda quyidagi sinonimik qatorlarni keltirish mumkin: chogʻlanib, sozlanib; yolgʻiz, egiz; xalq, xaloqiy, el; xudo, yaratgan, oblo, haq, egam, rabb; shod, xurram; mol, dunyo; shoh, sulton; noiloj, nochor; chopar, arizachi; ota, bobo, qiblagoy; koʻk, osmon, havo, falak; dushman, gʻanim; ogʻa, aka, emikdosh; joy, mazgil; goʻriston, mozorot; sarson, sargardon; farmon, amr, buyruq; ayol, juvon, xotin; jabr, zulm, qismat, taqdir va hokazo.

Masalan:

Toychixon amriman jallod kelgandir [5.29]

Shunday boʻldi haqdan menga farmonlar [6.193]

Har na qismat yozilgandan bilaman,

Azaliy taqdirga nimish qilaman [7.11]

Qizu juvon bari yigʻilib keladi.

Ayollari toʻqiz tovoq qiladi.

Antonim soʻzlar. Dostonlarda tazod badiiy sanʼatidan foydalanish soʻzlarning, badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, tasirchanligini taʼminlashda qulay vositalardan biri sanaladi. Tazod asarning badiiy va tasviriyl xususiyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotda bu hodisa “antiteza” deb yuritiladi. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli (mumtoz adabiyotda bu usul tazod deb yuritiladi) bir-biriga nisbatan qarama-qarshi maʼnolarni beruvchi soʻzlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qoʻllash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR



Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, tilimiz lug‘at boyligining oshishidagi muhim manbalaridan biri bo‘lgan o‘zlashma so‘zlar, xususan, fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan deyishimiz mumkin. Buni “Alpomish” dostonida qo‘llangan so‘zlar misolida ham yaqqol ko‘rdik. Mazkur dostonni tahlil qilar ekanmiz, doston tilining badiiyati va tili bevosita baxshilarga ham bog‘liqdir. Bunda baxshilar o‘z shevalariga tayangan holda ijod qiladilar. Shuning uchun dostonlar tilida ko‘plab leksik-grammatik va qisman fonetik dialektizmlar dostonlar poetikasida u yoki bu darajada xizmat qiladi. Dostonchi muayyan dostonni kuylash jarayonida tarixiy va milliy kaloritni berish maqsadida bevosita va bilvosita sheva xususiyatlaridan (ayniqsa, leksikasidan) unumli foydalanadi.

Fonetik dialektizmlar dostonlar tilida sezilarli iz qoldirmasa-da, baxshining doston aytish jarayonida nafasini bir maromda ushlashda, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq tejamkorlikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Doston tilida yuqoridagi reduksiya, eliziya va metateza kabi fonetik hodisalarning mavjudligi o‘zbek xalq poetik ijodining naqadar boyligi va serqirraliligidan dalolat beradi. “Alpomish” dostonida qo‘llangan so‘zlar badiiy, leksik-semantik xususiyatlari jihatidan juda boy va rang-barang. Unda o‘zbek tili lug‘at tarkibining, deyarli, barcha qatlamlariga mansub lug‘aviy birliklar keng qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shunga ko‘ra dostonda qo‘llangan so‘zlarni leksik-semantik jihatdan bir necha guruhlariga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dostonda o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansub leksik birliklar hamda dialektal leksik birliklar ham faol qo‘llanganligi doston badiiy tilini yanada oshirgan. Shunga ko‘ra, avvalo, dostonda qo‘llangan so‘zlarni ikki qatlam, ya’ni o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamga ajratib tahlil qilish til uchun juda muhim aspektidir.



Dostondagi o‘z qatlam leksemalari bu hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida qo‘llanuvchi so‘zlar hisoblanib, qadimiy davrlardan bugunga qadar ishlatilib kelinayotgan so‘zlardir.

O‘zlashgan qatlam so‘zlar esa hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibining tahminan yarmini turkiy so‘zlar tashkil qiladi. Xususan, dostonda ham o‘zlashgan qatlamga mansub so‘zlar ko‘plab qo‘llangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkent “O‘zbekiston”, 2000. 8-tom, 78-bet
2. Fayzullayeva D. Xalq dostonlari tilining dialektal xususiyatlari. Toshkent, O‘TA, 2013. 96-bet
3. Fayzullayeva D. Xalq dostonlari tilining dialektal xususiyatlari. Toshkent, O‘TA, 2013. 98-bet
4. Jumanazarova G. Xalq dostonlari tilining o‘rganilishi. Toshkent, O‘TA, 2013.
5. “Alpomish” dostoni aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashr uchun ma’sul: H.Zarif. Toshkent 2010. 29-bet
6. “Alpomish” dostoni aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashr uchun ma’sul: H.Zarif. Toshkent 2010. 193-bet
7. “Alpomish” dostoni aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Nashr uchun ma’sul: H.Zarif. Toshkent 2010. 11-bet